



**Yangi Mehnat kodeksida
erkaklar uchun ham alohida
kafolatlar nazarda tutilgan**

2-betda o'qing



**Osmonda yurgan mutasaddilar
va "Dok-1 Maks": eng zarur
xabarlar nega doim kechikadi?**

3-betda o'qing

INSON va qonun

2023-YIL
24-YANVAR
SESHANBA

№ 03 (1363)

www.hudud24.uz

www.adolatmarkazi.uz

telegram.me/hudud24official/

facebook.com/hudud24official/

@adolat_nashrlari



**"ADOLAT" milliy
huquqiy axborot
markazi nashrlariga
obuna bo'ling!**



"Adolat
nashrlari"
telegram
kanalida
kuzatung!



**ANDIJONDA
O'N OLTINCHI
DAVLAT
XIZMATLARI
MARKAZI
FOYDALANISHGA
TOPSHIRILDI**



Andijon viloyati Jalaquduq tumani davlat xizmatlari markazining yangi binosi foydalanishga topshirildi. Markaz aholining barcha qatlamlariga, shu asnoda, yosh bolali ayollar, turli toifadagi nogironligi bo'lgan shaxslar, yoshlar va faxriylarga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan. Ushbu imoratda adliya bo'limi, yuridik xizmat ko'rsatish markazi, Fuqarolik holati dalolatnomasini yozish (FHDYo) bo'limi hamda davlat xizmatlari markazining bitta o'rinida joylashishi hudud aholisiga qulaylik yaratadi.

Shu jumladan, markazda elektron navbat tizimi, ma'lumot kioski, o'z-o'ziga elektron xizmatlar olish burchagi, investorlar, ID-karta va xorijga chiqish biometrik pasportini berish xonasi, bank shoxobchasi joylashgan.

**HAYDOVCHILIK
GUVOHNOMANGIZNI
ALMASHTIRISHGA
ULGURING!**



2010-yilgacha berilgan haydovchilik guvohnomalari 2023-yilning 31-martidan haqiqiy hisoblanmaydi.

Eski namunadagi barcha milliy haydovchilik guvohnomalari va avtomototransportni ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomalarni majburiy almashtirish muddati quyidagicha uzaytirilgan:

- 2010-yilgacha bo'lgan davrda berilganlari – 2023-yil 31-martgacha;
- 2010-2012 yillarda berilganlari – 2023-yil 30-iyungacha;
- 2013-2015 yillarda berilganlari – 2023-yil 30-sentabrigacha;
- 2015-yildan keyin berilganlari – 2023 yil 31-dekabrigacha.

Yuqoridagi muddatlarga almashtirilmagan guvohnomalar haqiqiy emas, deb topiladi.

Qog'ozda bor, amalda yo'q kompensatsiya

TOSHKENT shahrida yashovchi fuqaro X.B.ning murojaati Samarqand viloyat adliya boshqarmasi tomonidan o'rganib chiqildi. Aniqlanishicha, Pastdarg'om tuman hokimining 2018-yil 7-martdagi qaroriga asosan fuqaro X.B.ga tumanning Juma shahar, Furqat mahallasi hududidan hokimlik zaxirasida bo'lgan 0,44 gektar yer maydoni ajratilgan.

4-betda o'qing



2 JARAYON

PREZIDENTIMIZNING 2022-yil 28-noyabrdagi "Jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi farmoni Yangi O'zbekiston sharoitida jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash amaliyotini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida qabul qilindi.



Jinoyatlarni tergov qilish sohasida

MUHIM QADAM

Farmonga ko'ra, Bosh prokuratura Akademiyasi negizida O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi tashkil etilib, unda jinoyatlarni tergov qilish sohasida kadrlarni amaliyot bilan uzviy bog'liqligini ta'minlagan holda yagona yondashuv asosida tayyorlashga qaratilgan uzluksiz o'quv tizimi yo'lga qo'yiladi.

Akademiyada Bosh prokuratura tashkiliy tuzilmasiga kiruvchi, yuridik shaxs maqomiga ega, ixtisoslashtirilgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblanib, faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib:

- ☑ ta'lim oluvchilarda inson huquq va erkinliklariga so'z-siz rioya qilish madaniyati bilan uyg'unlashgan yuksak ma'naviy, psixologik, tahliliy va kasbiy sifatlarini rivojlantirishning samarali tizimini joriy etgan holda jinoyatlarni tergov qilish sohasida mutaxassislarini chuqurlashtirilgan maqsadli bazaviy tayyorlash;
- ☑ jinoyatlarni tergov qilish metodikasi va taktikasini samarali belgilash asosida jinoyat ishlari bo'yicha mustaqil ish yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan interfaol o'qitish metodlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish;
- ☑ o'qitishning zamonaviy shakllari, pedagogik va axborot texnologiyalari asosida nazariy tayyorgarlikning huquqni qo'llash amaliyoti bilan uzviy bog'liqligini, shu jumladan, masofaviy ta'lim shaklida ta'minlashga qaratilgan o'quv jarayonini tashkil etish;
- ☑ prokuratura organlari xodimlarida bilim va ko'nikmalarni, shu jumladan, tizimli tahlil va tanqidiy fikrlashni, qonuniyligni ta'minlash yuzasidan adolat va mas'uliyat kabi yuksak tuyg'ularni shakllantirish va mustahkamlashga qaratilgan tayyorlash, qayta tayyorlash va malaka oshirishning yaxlit tizimini tashkil etish;
- ☑ jinoyatlar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini, shu jumladan, tergovga qadar tekshiruv hujjatlari va jinoyat ishlarini o'rganish asosida ularning alohida turlari kesimida tahlil va diagnostika qilish, shuningdek, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini uslubiy va konsultativ ta'minlash;
- ☑ sud-huquq sohasida qo'shma ilmiy tadqiqotlar olib borish, ilg'or pedagogik tajriba almashish borasida uzluksiz xalqaro hamkorlikni amalga oshirish, o'quv jarayoniga xorijiy mamlakatlar yetakchi oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining malakali mutaxassislarini jalb qilish, hisoblanadi.

Shuningdek, ushbu farmonida 2023/2024 o'quv yilidan boshlab Akademiyada tergov faoliyati va huquqni muhofaza qilish faoliyatining boshqa sohalarida bakalavriat (3 yil) va magistratura (1 yil) bo'yicha o'quv jarayoni tashkil etilishi, qabul parametrlari esa har yili Prezident tomonidan belgilanishi, vakolatli davlat organlari xodimlari uchun esa Akademiyada tegishli o'quv dasturlari bo'yicha kasbiy qayta tayyorlash va malaka oshirishning majburiy tartibi joriy qilinishi ko'rsatib o'tilgan.

Ushbu farmonning e'tiborli jihatlaridan biri shundaki, farmonga ko'ra, Akademiyaning tergov sohasiga ixtisoslashtirilgan kafedralari tarkibining 30 foizdan kam bo'lmagan qismi – ichki ishlar organlari, Davlat xavfsizlik xizmati va bojxona organlarining surishtiruv hamda tergov tuzilmalarida ko'p yillik amaliy ish tajribasiga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar hisobidan shakllantiriladi.

Bu esa o'z navbatida Akademiyada tayyorlanayotgan mutaxassislarning yuksak malakali va salohiyatli bo'lishiga zamin yaratadi.

Mamlakatimizda tergov faoliyatida "Inson qadri uchun" degan ezgu g'oyani to'liq ro'yobga chiqarish, jinoyatlarni o'z vaqtida fosh etishni tashkil etish tergov organlarining faoliyatini qonun ustuvorligi va qilmish uchun jazo muqarrarligini ta'minlash tamoyili asosida takomillashtirishning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Rustam ABDULLAYEV,

Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi

O'ZBEKISTON Respublikasining yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi tasdiqlandi. 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan amaldagi Mehnat kodeksi 2 ta qism, 15 ta bob va 294 ta moddadan iborat edi. Yangi tahrirda qabul qilingan Mehnat kodeksi esa 2 ta qism, 7 ta bo'lim, 34 ta bob va 581 ta moddadan iborat. Ya'ni, yangi kodeks amaldagisiga qaraganda 19 ta bobga va 287 ta moddaga ko'pdir.



Yangi tahrirdagi Mehnat kodeksida bir qator o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Jumladan, kodeksning 397-moddasiga ko'ra, 3 yoshga to'lmagan bolaning budjetdan moliyalashtiriladigan tashkilotlarda ishlaydigan ota-onasidan biriga (vasiysiga) haftasiga 35 soatdan oshmaydigan ish vaqti davomiyligi belgilanadi. Amaldagi Mehnat kodeksi 228-moddasiga ko'ra esa bu kafolat budjetdan moliyalashtiriladigan tashkilotlarda ishlaydigan ayollariga taqdim qilinadi edi xolos.

Yangi Mehnat kodeksining 407-moddasiga ko'ra, 2 yoshga to'lmagan bolaning ota-onasidan biriga (vasiysiga) dam olish va ovqatlanish uchun tanaffusdan tashqari bolani ovqatlantirish uchun qo'shimcha tanaffuslar

YANGI MEHNAT KODEKSIDA erkaklar uchun ham alohida kafolatlar nazarda tutilgan

beriladi. Bu tanaffuslar kamida har uch soatda, har biri o'ttiz minutdan kam bo'lmagan davomiylikda beriladi. Ikki yoshga to'lmagan ikki yoki undan ortiq nafar farzandi bo'lgan taqdirda, tanaffusning davomiyligi kamida bir soat qilib belgilanadi. Bolani ovqatlantirish uchun tanaffuslar ish vaqtiga kiritiladi va o'rtacha ish haqi bo'yicha haq to'lanadi.

Demak, otalar ham bemalol bolani ovqatlantirish uchun beriladigan tanaffuslardan foydalanishi mumkin bo'ladi. Bolani ovqatlantirish uchun tanaffuslar faqat ota-onadan biri bolani parvarishlash ta'tilida bo'lmagan va bunday tanaffuslardan foydalanmayotgan taqdirda beriladi.

Bundan tashqari, yangi hujjatning 407-moddasiga ko'ra, ishlaydigan erkaklarga xotinining homiladorlik va tug'ish ta'tili davrida o'z xohishiga ko'ra yillik mehnat ta'tili:

- ☑ birinchi ish yili uchun – ishlab berilgan vaqtdan qat'i nazar;
- ☑ keyingi yillarda – ta'tillar berish jadvalidan qat'i nazar beriladi.

Bundan tashqari, xodimlarning noroziligiga sabab bo'layotgan da'vo muddatlarida ham sezilarli o'zgarishlarni ko'rish mumkin. Jumladan, kodeksning 560-moddasiga asosan, ishga tiklash to'g'risidagi da'vo muddati mehnat shartnomasi

bekor qilinganligi haqidagi ish beruvchi buyrug'ining ko'chirma nusxasi xodimga topshirilgan kundan e'tiboran 3 oy deb belgilandi. Amaldagi Mehnat kodeksining 270-moddasida esa bu muddat 1 oy qilib belgilangan edi. Boshqa mehnat nizolari bo'yicha da'vo muddati xodim o'zining huquqi buzilganligi to'g'risida bilgan yoki bilishi kerak bo'lgan kundan e'tiboran 6 oy deb belgilandi. Amaldagi kodeksda esa, bu muddat 3 oy deb belgilangandi.

Shuningdek, amaldagi Mehnat kodeksining 134-moddasiga asosan, xodimlarga 15 ish kunidan kam bo'lmagan muddat bilan yillik asosiy ta'til berilishi belgilangan. Yangi tahrirdagi kodeksning 217-moddasiga asosan esa har yilgi asosiy eng kam mehnat ta'tilining davomiyligi yigirma bir kalendar kunni tashkil etishi belgilangan.

Yangi Mehnat kodeksining 208-moddasiga ko'ra, dam olish kuni ishlanmaydigan bayram kuniga to'g'ri kelgan taqdirda, dam olish kuni bayramdan keyingi ish kuniga ko'chirilishi belgilab qo'yilgan. Bu norma amaldagi kodeksda nazarda tutilmagan edi.

Lola MIRDOSOVA,

Paxtaobod tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti



Bugun esa “Dok-1 Maks” balosi tufayli najotni qayerdan izlashni ham bilmay qoldik. Doimgidek, gripp mavsumi, xonadonlarda bolalar shamollagan. Kattalar esa qanday dori berishni bilmay yurak hovuchlab o'tiribdi. Bu yoqda qahraton qish.




Ota-onalarni o'zboshimchalik bilan retseptsiz dori berganlikda ayblayotgan hurmatli mutasaddilarga bo'lsa, ayrim savollarimiz bor:

Retsept bilan dorixonaga borganda nima o'zgaradi? Sababi – “do'xtir ham baribir shuni tavsiya qiladi-da!” “Aptekirlar” bilan kelishib olgan do'xtirlaringiz Alini bolasi shamollasa nima yozgan bo'lsa, Valini o'g'ligayam shuni yozib berayapti. Hammaning organizmi har xil, to'g'rimi, ammo qayerda ko'rdingiz oddiy shamollash yo gripp bilan borganda “avval analiz topshirib kel”, deyishganini?

OSMONDA YURGAN MUTASADDILAR VA “DOK-1 MAK”: eng zarur xabarlar nega doim kechikadi?

HAR qanday ota-ona farzandi betob bo'lsa, o'zini qo'yarga joy topolmaydi. Bu bor gap. Xavotir yuragingizni ming bir siquvga olgan ana shu daqiqalarda najot faqat bir narsada ko'rinadi – dorida! Shu dori tortmangizda borligi uchun ham ishonch va xotirjamlikning uchquni paydo bo'ladi. Qalbingizda Yaratganga ming bir iltijo bilan isitma tushiruvchi dorini berasiz va isitma tushgachgina tinchlanasiz. Ertasiga uzundan-uzun retsept asosida davolanish boshlanadi.



Bir paytlar oddiy “pensilin”u, “aspirin” bilan davolanagan kasalliklarga bugun kamida o'nta dori yozib berishayapti. Farmatsevtikani biznesga aylantirgan o'zingiz-u, endi ota-onalarni har xil dori berganlikda ayblayapsizmi? Dori vositalarini standartlashtirish ilmiy markazingiz dorilarni pala-partish tekshirib o'tkazib yuborganini – o'z yog'iga o'zi qovurilayotgan ota-onalar qayoqdan ham bilsin?!

Juda achinarli. Deyarli har doim ijtimoiy ahamiyatga ega qandaydir voqea yuz bersa, birinchi bo'lib internetda sizib chiqadi, muhokama bo'ladi, hatto, faktlar ham paydo bo'ladi. Undan keyingina shu mavzuga aloqador mutasaddi tashkilot sekin bosh ko'taradi va go'yo iloj-sizlikdan xabarni tasdiqlaydi. “Dok-1 Maks” voqeasida ham xuddi shunday bo'ldi. Preparatni ichgan bolalarning halok bo'lgani haqidagi xabarlar birinchi bo'lib ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo'ldi. 22-dekabr sanasidagi bu voqealarga Sog'liqni saqlash vazirligi 27-dekabrqa qadar “voqea o'rganilayotgani” mazmunidan chetga chiqmagan holda xabar berib turdi. Bugacha esa ijtimoiy tarmoqlarda ushbu dori vositasi sotuvdan olingani, preparatning zarari haqida xabar bergan Samarqand viloyat Bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi bosh shifokorining xati va boshqa faktlar chiqib bo'ldi. Faqat 27-dekabrda qanday vazirlik o'rganish natijalarida dorining zararlarini aniqlangani, sotuvi to'xtatilgani haqida rasmiy ma'lumot berdi. 29-dekabrda, nihoyat, telefonlarimizga “Dok-1 Maks” preparatini qabul qilmaslik haqida xabar yetib keldi.

Tushunish juda qiyin, nega rasmiy xabarlar bunchalik kechikadi?! Inson salomatligi, ayniqsa, bolalar sog'lig'i xavf ostida bo'lgan bir paytda.

Sensatsiyaning odamlarga foydasi tegdi

Sog'liqni saqlashning yangi vaziri A. Inoyatovning “Quramax”ning barcha dori vositalari sotuvini to'xtatish haqidagi ko'rsatma xati ham birinchi bo'lib 2-yanvar kuni elektron ommaviy axborot vositalarida paydo bo'ldi. Sog'liqni saqlash vazirligi 4-yanvarda bu haqda xabar berdi. Nega endi bu xat 2-yanvarning o'zida rasman tarqatilmagisi kerak? Nega har doim blogerlaru internet foydalanuvchilari kavlashitirib tortib chiqarishi kerak barcha uchun muhim ma'lumotlarni, ko'rsatilgan dorilarni qabul qilmaslik haqidagi ogohlantirish zudlik bilan butun O'zbekiston aholisiga tarqatilishi kerak emasmi? Kechiktirib bo'lmaydigan holat-ku bu. Yaxshi ham internet zamonida yashayapmiz. Yaxshi ham izlanuvchan jurnalistlaru “bomba xabar” izlab yurgan blogerlar bor ekan. Bo'lmasa tizim mas'ullari uyg'ongunicha yana qancha odamlarning, qancha bolalarning hayoti xavf ostida qolar edi. Sensatsiyaning shu o'rinda odamlarga foydasi tegdi.

Aholining sog'lig'ini asrash, xavfdan ogoh qilish birinchi galda Sog'liqni saqlash vazirligining vazifasi emasmi?!

Mas'ul idoralarning haqqoniy ma'lumotlarni kechiktirishi bir qancha aks ta'sirlarni keltirib chiqaradi:

- ❑ Odamlarning mutasaddi tashkilotlarga ishonchi yanada pasayadi.
- ❑ Ijtimoiy tarmoqlardan ko'pchilik foydalanadi. Ammo unda tasdiqlanmagan xabarlarining ham ko'pligi foydalanuvchilarda to'liq ishonch hissini ta'minlamaydi (“Sinepar” tabletkasiga o'rganib qolganlar “rasmiy ma'lumot berilmadiku hali”, deya uydin shu dorini qidirgani va shunga o'xshash holatlar haqida eshityapmiz).
- ❑ Internet resurslaridan xohlaganda foydalana olmaydigan qatlam uchun doridan zararlanishning xavflilik darajasi yuqorilgicha qoladi.

E'tibor berdingizmi, onda-sonda taqilqlangan preparatlar ayrim dorixonalarda sotilayotgani, ba'zi tibbiyot xodimlarining bexabar va befarqligi haqidagi xabarlar ham chiqib qolyapti. Bularning barchasi aholini ogohlantirish mazmunidagi targ'ibot (rasman)ning sustligi tufayli, albatta.

Biror marta televideniye orqali zarari tasdiqlangan dori vositalarini qabul qilmaslik haqida videorolik, jillaqursa, e'lon ko'rmadik. Har xil doriyu damlamalar reklamasini har soatda aylantirishni maromiga yetkazadigan TV kanallarining birortasi ogohlantiruvchi kontentlar bermadi. Vaholanki, praym-taym vaqtlaridan va boshqa imkoniyatlardan foydalanish mumkin edi. Bizningcha, bunday ijtimoiy ahamiyati dolzarb voqealarda barcha axborot resurslari aholini kunda ming marta ogohlantirishi kerak edi.

Vazirlikning 4-yanvar kuni bergan rasmiy bayonotida xonadonlarda saqlanayotgan dorilar nazoratga olinayotgani, endi uyma-uy yurgan holda “Xonadon dori qutisi”ni shaxsan nazoratdan o'tkazish, muddati o'tgan preparatlar, saqlash qoidalari buzilgan hamda “Quramax Medical” kompaniyasining barcha dori vositalarini qabul qilmaslik va iste'moldan chiqarish kerakligi haqida odamlarga tushuntirish berilishi aytilgandi. Ammo poliklinika xodimlari biz tomonlarga hozircha yetib kelgani yo'q. Siz tomonlarga-chi?

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti 11-yanvar kuni “Dok-1 Maks” va “Ambro-nol” siroplari bo'yicha xalqaro ogohlantirish e'lon qildi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bu dorilar boshqa mamlakatlarda ham rasman sotilayotgan yoki norasmiy bozorlar orqali kirib borgan bo'lishi mumkinligini hisobga olib, dunyo miqyosida mazkur dorilarni qo'llamaslikka chaqirgan.

2022-yilning sentabr-oktabr oylarida

Gambiya va Indoneziyada Hindistonda ishlab chiqarilgan siroplar tufayli bolalar o'limi kuzatilganda ham JSST ogohlantirish e'lon qilgan, dunyo miqyosida ro'y bergan bu voqealar sog'liqni saqlash tizimimizdagi ko'p tashkilotlarni ogoh qilishi kerak edi. Jumladan, Farmatsevtika agentligi huzuridagi dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazining Farmakologik nazorat bo'limini ham.

Dorilarga ruxsatnoma qanday beriladi?

Shu o'rinda ma'lumot uchun dorilarga qanday tartibda ruxsatnoma berilishini eslatib o'tamiz:

Dorilarni qo'llashga ruxsatnoma olish uchun hujjatlar Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markaziga beriladi.

Ruxsatnoma xorijiy ishlab chiqaruvchilarga 5 yilga, mahalliy ishlab chiqaruvchilarga muddatsiz davrga beriladi. Ruxsatnoma berish yoki bermaslik haqidagi qarorni Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tashkil etilgan Ekspertlar kengashi qabul qiladi.

Ekspertlar kengashi Farmakopeya, Farmakologiya, Yangi tibbiy texnika qo'mitalari, shuningdek, Markazning boshqa bo'linmalari xulosalari asosida dorining qo'llanilishiga ruxsat berish yoki ruxsat berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi. Ruxsatnoma olishda tegishli tartib va talablar joriy etilgan. Qonunchilikdagi bu talablar faqat qog'ozda qolyapti, shekilli. Mutasaddilar hech bo'lmaganda inson salomatligi ko'ndalang turganda ko'zbo'yamachilikka yo'l qo'ymasa insofdan bo'lardi. Ogohlilik targ'iboti esa munozam davom etishi shart!

Madhiya AVAZOVA,
jurnalist

4 MUHOJAAATLAR ADLIYA NIGOHIDA



MIRZO ULUG'BEK tuman xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi maktabda kadrlar menejeri bo'lib faoliyat yurituvchi D. X. oliy ma'lumotli mutaxassis bo'lsa-da, unga 6-razryad bo'yicha oylik maosh to'lab kelinayotganidan norozi bo'lib, tuman adliya bo'limiga murojaat qilgan.

Menejer o'z haqini talab qildi

Murojaat o'rganilganda, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-sentabrdagi 743-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Tabiiy-iqlim va maishiy sharoitlari og'ir va noqulay bo'lgan joylarda ishlovchi xodimlar mehnatiga haq to'lashga tuman koeffitsiyentlarini, shuningdek, ularga har yili beriladigan qo'shimcha ta'tilning eng kam muddatini belgilash va qo'llash tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan davlat budjeti mablag'lari hisobiga saqlanadigan tashkilotlarda band bo'lgan xizmatchilarning ayrim toifalari mehnatiga haq to'lash bo'yicha razryadlarga ko'ra oliy ma'lumotli muhandislar, mutaxassis va inspektorlar 7-razryad qilib belgilangan bo'lsa-da, ish yurituvchi kadrlar menejeri D.X.ga 6-razryad bilan oylik ish haqi to'langani ma'lum bo'ldi.

Tuman xalq ta'limi bo'limiga mazkur qonunbuzilishini bartaraf etish yuzasidan taqdimnoma kiritilib, kadrlar menejeri 7-razryad bo'yicha oylik ish haqi to'lanishi ta'minlandi.

Shokir YUSUPOV,

Mirzo Ulug'bek tuman adliya bo'limi boshlig'i

O'rganish davomida maktab direktori M. Mamajonova bilan tuzilgan mehnat shartnomasini Mehnat kodeksining 105 (muddatli mehnat shartnomasini muddati tugashi munosabati bilan bekor qilish) va 234-moddasi (bola ikki va uch yoshga to'lgunga qadar parvarishlash uchun beriladigan ta'til)ning beshinchi qismiga asosan bekor qilganligi aniqlangan. Vaholanki, M. Mamajonova bilan mehnat shartnomasi nomuayyan muddatga tuzilgan. Bundan tashqari, M. Mamajonovani ishdan bo'shatish to'g'risidagi buyruq loyihasi xulosa olish uchun tuman adliya bo'limining yuridik xizmat ko'rsatish markaziga "E-huquqshunos" elektron tizimi orqali yuborilmagan. Natijada markaz xulosasiz buyruq qabul qilgan. Qonunchilikka ko'ra, yuridik xizmat ko'rsatilishi belgilangan tashkilotlar tomonidan markazlar bilan kelishilmagan holda yuridik tusdagi hujjatlar qabul qilinishiga yo'l qo'yilmaligi, bunday hujjatlar yuridik kuchga ega emasligi hamda ular qabul qilingan paytdan e'tiboran hech qanday huquqiy oqibatlarini keltirib chiqarmasligi belgilab qo'yilgan.

Bundan ko'rinib turibdiki, maktab direktori tomonidan bir qator qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'yilgan. Ularni bartaraf

FUQARO mavjuda Mamajonova 2020-yildan buyon Asaka tumanidagi 24-umumiy o'rta ta'lim maktabida kadrlar bo'yicha menejer lavozimida faoliyat yuritib kelgan. Biroq 2022-yilning avgust oyida maktab ma'muriyati bilan vujudga kelgan kelishmovchilik oqibatida direktor tomonidan ishdan bo'shatilgan. Bundan norozi bo'lgan M. Mamajonova ish beruvchi tomonidan mehnat shartnomasi asossiz ravishda bekor qilinganligini bildirib, amaliy yordam so'rab tuman adliya bo'limiga murojaat qilgan.



BIR XATO IKKI JAZOGA SABAB BO'LDI

etish bo'yicha maktab ma'muriyatiga bajarilishi majburiy bo'lgan taqdimnoma kiritilgan. Biroq maktab direktori tomonidan mazkur taqdimnomaning ijrosi ta'minlanmagan.

Bu haqda ma'muriy bayonnomaga tuzilib, ish hujjatlari jinoyat ishlari bo'yicha Asaka tuman sudiga yuborilgach, maktab direktori X.S.ga jarima jazosi tayinlangan.

Shuningdek, ushbu mansabdor shaxsning harakatlarida Ma'muriy-javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 49-moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarlik

alomatlar ham mavjudligi sababli jazo tayinlash bo'yicha Asaka tuman aholi bandligiga ko'maklashish markaziga taklif kiritilib, unga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining 5 barobari miqdorida jarima jazosi ham tayinlandi. Qonunlarni mensimagan maktab direktori bir marta qilgan xatosi uchun ikki marta jazolandi. Fuqaro M. Mamajonova esa o'z ishiga tiklandi.

Ilhomjon AHMEDOV,

Asaka tumani adliya bo'limi boshlig'i

BUXORO viloyat adliya boshqarmasi tomonidan Prezidentimizning 2020-yil 30-oktabrdagi "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ijrosi yuzasidan viloyat darajasidagi 40 ta davlat organi va tashkilotida monitoring o'tkazildi.

FARMON IJROSI TA'MINLANMAGAN



Ushbu farmonning 13-bandiga muvofiq, 2021-yil 1-yanvardan barcha davlat organlari va tashkilotlarida sog'lom turmush tarzi va ommaviy sportni rivojlantirish maqsadida mehnat jamoalarida faoliyat yuritayotgan xodimga "sport targ'ibotchisi" qo'shimcha vazifasini yuklash va uning bazaviy lavozim maoshiga 20 foiz miqdorida ustama belgilash yo'lga qo'yilgan.


Monitoring davomida 7 ta davlat tashkilotida sport targ'ibotchisi qo'shimcha vazifasini yuklash to'g'risida buyruq chiqarilmagani, 5 tasida mas'ul xodimga qo'shimcha vazifani yuklash to'g'risida buyruq chiqar-

ilgan bo'lsa-da, lavozim maoshiga 20 foiz miqdorida ustama to'lanmayotgani, 8 ta tashkilotda esa mas'ul xodimlarning bazaviy lavozim maoshiga ustamalar qisman to'lanayotganligi aniqlandi.

Monitoring natijasida yuqoridagi farmon talablarining buzilishiga sabab bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida 20 dan ortiq taqdimnoma kiritilib, xodimlarga to'lanmay qolgan ustama to'lab berildi.

Muqanna TO'XTAYEV,

Buxoro viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi



QO'G'OZDA BOR, AMIALDA YO'Q KOMPENSATSIYA

TOSHKENT shahrida yashovchi fuqaro X.B.ning murojaati Samarqand viloyat adliya boshqarmasi tomonidan o'rganib chiqildi. Aniqlanishicha, Pastdarg'om tuman hokimining 2018-yil 7-martdagi qaroriga asosan fuqaro X.B.ga tumanning Juma shahar, Furqat mahallasi hududidan hokimlik zaxirasida bo'lgan 0,44 gektar yer maydoni ajratilgan.

Ammo tuman hokimining 2021-yil 23-iyundagi qarori bilan yuqorida qayd etilgan qarorga o'zgartirish kiritilib, fuqaroga ajratilgan 0,44 gektar yer maydonining 0,24 gektar qismi davlat va jamoat ehtiyoji uchun olib qo'yilgan.

Fuqarolik ishlari bo'yicha Pastdarg'om tuman sudining 2022-yil 13-maydagi hal qiluv qarori bilan fuqaroga kompensatsiya sifatida Juma shahri hududidan 0,24 gektar yer maydoni ajratish belgilangan. Biroq, tuman hokimligi tomonidan hal qiluv qarorida belgilangan yer maydoni fuqaroga ajratib berilmagan.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 16-noyabrdagi 911-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Yer uchastkalari olib qo'yilishi va olib qo'yilayotgan yer uchastkasida joylashgan ko'chmas mulk obyektlari mulkdorlariga kompensatsiya berish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 41-bandiga ko'ra, olib qo'yilgan yer uchastkasida joylashgan ko'chmas mulk obyektlarining bozor qiymati, olib qo'yilgan yer uchastkasiga bo'lgan huquqning bozor qiymati davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilishi munosabati bilan kompensatsiya qilib beriladi. Shuningdek, ushbu

Nizomning 42-bandida beriladigan kompensatsiya puli mablag'lari yoki boshqa ko'chmas mulk obyektlari mulk qilib berish orqali qoplanishi belgilangan.

Fuqaroning Pastdarg'om tuman hokimligiga qilgan murojaatiga tuman hokimligi Prezidentimizning 2021-yil 8-iyuldagi farmoniga asosan, tuman hokimligidan yer maydoni ajratish vakolati olinganligi sababli yer maydoni ajratish imkonini yo'qligini bildirib, sudning hal qiluv qarorida belgilangan 0,24 gektar yer maydoni o'rniga bozor qiymatida pul mablag'i to'lab berishi mumkinligini ma'lum qilgan.


Viloyat adliya boshqarmasi tomonidan fuqaroning mafaatini ko'zlab fuqarolik ishlari bo'yicha Pastdarg'om tuman sudiga da'vo arizasi kiritildi. Sud Fuqarolik protsessual kodeksining 249-253-moddalarini qo'llab, Juma shahri hududidagi 0,24 gektar yer maydoni o'rniga fuqaro X.B. foydasiga 613 million 646 ming so'm miqdorida kompensatsiya puli undirish haqida qaror qabul qildi.

Mansur HASANOV,

Samarqand viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

HUQUQ va erkinliklarimiz o'z ifodasini topgan Bosh qomusimizning 28-moddasida "O'zbekiston Respublikasi fuqarosi respublika hududida bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, O'zbekiston Respublikasiga kelish va undan chiqib ketish huquqiga ega. Qonunda belgilangan cheklashlar bundan mustasnodir" deb belgilangan.

MA'MURIY NAZORAT KIMLARGA NISBATAN O'RNATILADI?



Ushbu cheklov O'zbekiston Respublikasining "Jazoni ijro etish muassasalari-dan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat to'g'risida"gi qonunida ko'rsatilgan. Unga ko'ra, quyidagi voyaga yetgan shaxslarga nisbatan sud tomonidan ma'muriy nazorat o'rnatiladi: sud tomonidan o'ta xavfli retdivist deb topilgan; og'ir yoki o'ta og'ir jinoyatlar sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan; har qanday qasddan qilingan jinoyatlar uchun ikki yoki undan ortiq marta ozodlikdan mahrum qilishga hukm etilgan; O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga binoan og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat hisoblanadigan qilmishlarni sodir etganlik uchun boshqa dav-

lat hududida ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni o'taganlarga tatbiq etiladi.

Ma'muriy nazorat sudlanganligi olib tashlangan yoki sudlanganlik holati tugallangan shaxslarga nisbatan o'rnatilishi mumkin emas.

Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda respublikamiz hududida fuqarolarning bir joydan ikkinchi joyga ko'chib, erkin harakatlanish huquqi ko'rsatib o'tilgan bo'lsa-da, Bosh qomusimizga ochiqdan-ochiq zid bo'lgan propiska rejimi mavjud edi. Prezidentimizning 2020-yil 22-apreldagi "Doimiy propiska qilish hamda turgan joyi bo'yicha hisobga olish tartibini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan esa ushbu nomuvofiqlik ham bartaraf etildi.

Mazkur farmon bilan Toshkent shahri va Toshkent viloyatida ko'chmas mulkni olishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun ushbu hududlarda doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olinganligi talab qilinmasligi belgilandi. Shuningdek, ushbu farmon bilan respublikaning boshqa hududlarida doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olingan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari Toshkent shahri va Toshkent viloyatidagi yangi qurilgan uylarni sotib olib, uch yil ichida sotgan holatlarda davlat bojining alohida stavkalarini qo'llash tartibi bekor qilindi.

Yuqorida ko'rsatilgan huquqlar bo'yicha xorij tajribasiga qaraydigan bo'lsak, Latviya Konstitutsiyasining 97-moddasida Latviya hududida qonuniy ravishda yashovchi har bir kishi erkin harakatlanish va yashash joyini tanlash huquqiga egaligi ko'rsatilgan.

Singapur Konstitutsiyasida ham ushbu huquq bilan bog'liq qoida o'z aksini topgan bo'lib, "Quvg'inni taqilash va harakatlanish erkinligi" degan bobi 13-moddasida, Singapur yoki uning hududining xavfsizligi, jamoat tartibi, jamoat sog'ligi yoki huquqbuzarlar jazosi bilan bog'liq qonun normalariga muvofiq, har bir Singapur fuqarosi butun mamlakat bo'ylab erkin harakatlanish va uning istalgan qismida yashash huquqiga ega ekanligi belgilangan.

Islombek KARIMOV,
Toshkent shahar adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

O'ZBEKISTON Respublikasining 2017-yil 3-yanvarda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunida fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish davlat siyosatining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.



Shu ma'noda aytganda, davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatni yuksaltirish korrupsiyaga qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi qonunning 17-moddasida "Davlat organlari va boshqa tashkilotlar o'z mansabdor shaxslarining hamda boshqa xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy savodxonligini, shu jumladan huquqiy bilimlari darajasini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'radi" deya qayd etilgan.

Bundan tashqari, Prezidentimizning 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni hamda unga asosan tasdiqlangan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi"da davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirib borish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish nazarda tutilgan. Shuningdek, davlatimiz rahbari tomonidan 2021-yil 6-iyulda imzolangan "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha

chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Adliya vazirligi, Davlat boshqaruvi akademiyasi va Bosh prokuratura Akademiyasiga 2022-yil 1-yanvardan boshlab "halollik vaksinasi" tamoyili asosida davlat xizmatchilarini muntazam ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to'qnashuvi va odob-axloq qoidalarini bo'yicha maxsus o'quv kurslarda o'qitish tizimini joriy etish vazifasi yuklatildi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, yakunlangan 2022-yilda Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi tomonidan "halollik vaksinasi" tamoyili asosida turli davlat organlari va tashkilotlarining jami 2112 nafar xodimiga "Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari", "Korrupsiyaviy huquqbuzarliklar uchun javobgarlik", "Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorat tizimi" mavzularida "offline" va "online" shaklda 62 ta qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etildi. Markazning maxsus elektron o'quv platformasiga joylashtirilgan "Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish" o'quv modullari orqali esa adliya organlari va muassasalarining 5 ming 111 nafar xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirilishi yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 16-maydagi "2022-2023 yillarda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga binoan Yuristlar malakasini oshirish markazi tomonidan davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining mehnat huquqi, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari, murojaatlar bilan ishlash va boshqa dolzarb mavzular bo'yicha bilimlari oshirildi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, davlat organlari va tashkilotlar xodimlarining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga oid ishlarni tashkil etishga qaratilgan qonun, mamlakatimiz rahbari hamda hukumatimizning hujjatlarida belgilangan vazifa va chora-tadbirlarning tegishli ta'lim muassasalari tomonidan so'zsiz amalga oshirilishi, davlat fuqarolik xizmatchilarida korrupsiyaga qarshi murosasizlik hissini shakllantirishda samarali natija beradi.

Rafiq SHAKUROV,

Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi dotsenti, yuridik fanlar nomzodi

88 "MADAD" JAVOB BERADI



Savollarga "Madad" NNT Marg'ilon shahar huquqiy maslahat byurosi bosh mutaxassisi
Umidjon ABDULLAYEV javob berdi



- MAKTABDA tashkil qilingan pullik xizmatdan tushadigan mablag'ning qanchasini o'qituvchi olishi kerak?

- Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 22-apreldagi 343-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 8-bandiga asosan maktabda pullik ta'lim xizmati ko'rsatishga, birinchi navbatda, shu maktabda faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar shartnoma asosida jalb etiladi. Buyurtmachilar tomonidan kelib tushadigan mablag'lar (lekin 50 foizidan kam bo'lmagan miqdori) o'qituvchilarga haq to'lashga yo'naltirilishi mumkin. Bunda qonunchilikda belgilangan soliqlar va yig'imlar mazkur summadan chegirib olinadi.

Ya'ni, bu degani siz maktabda bolalarga haq evaziga to'garak mashg'ulotlarini o'tmoqchi bo'lsangiz, avvalo, shartnoma tuzishingiz lozim. Shartnomada pullik xizmatning qancha qismi sizga yo'naltirilishi kelishib olinadi. Nizomda kamida 50 foizi deyilmoqda, ammo u 100 foiz yoki 70 foiz bo'lishi ham mumkin. Bu sizning maktab ma'muriyati bilan tuzgan shartnomangizga bog'liq.



- Men sog'lig'imni tiklash maqsadida chet elga operatsiya qildirish uchun bormoqchi edim, lekin hududiy poliklinikamizda kasallik varaqasi ochmaymiz deyishdi. Shu to'g'rimi?


- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2015-yil 20-martdagi 25-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Mehnatga layoqatsizlik varaqalarini berish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaning 25-bandiga chet elda vaqtincha bo'lgan vaqtda kasallanganlik yoki chet elda davolanganlik to'g'risidagi hujjatlar davlat yoki rus tilidagi notarial tasdiqlangan tarjimasini taqdim qilganda, mehnatga layoqatsizlikni tasdiqlovchi asoslarni inobatga olib, bemorning yashash yoki ish joyidagi davolash-profilaktika muassasasining vrachlik maslahat komissiyasi tomonidan mehnatga layoqatsizlik varaqasi rasmiylashtiriladi.

Mazkur asosga ko'ra, davolanganlik to'g'risidagi hujjatlar davlat yoki rus tilidagi notarial tasdiqlangan tarjimasini yashash joyingizdagi poliklinikaga taqdim qilganingizda sizga mehnatga layoqatsizlik varaqasi rasmiylashtiriladi.

FAOLIYATIMIZ ORQALI

XALQIMIZGA YANADA YAQIN BO'LAMIZ

KEYINGI yillarda davlatimiz tomonidan ko'chmas mulkka doir munosabatlarni tartibga solish borasidagi qonunchilikni mustahkamlash bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2022-yil 28-noyabrda "Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.



Mazkur qonun ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarning davlat ro'yxati sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, bu bilan mulkdorlarning huquqlarini davlat tomonidan kafolatlash va himoya qilishni qonun darajasida amalga oshirishga xizmat qiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 30-noyabrda "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiy lashtirish va elektron onlayn-auksion orqali ijaraga berish tartib-taomillari soddalashtirilishi munosabati bilan Vazirlar Mahkamasining "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiy lashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida" 2022-yil 14-fevraldagi 71-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi

qarori bilan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini auksion savdolariga chiqarishning yangi tartibi joriy qilindi. Unga ko'ra, qurilish bo'limlari bilan birgalikda kadastr organlari filiallari ham bo'sh yer uchastkasini aniqlab, "Yerelektron" AATga kiritishi belgilandi.

Yer uchastkalarini savdoga chiqarishda kelishuv va muhokama jarayonlarini birlashtirish hisobiga kelishish bosqichlari 8 taga, auksionga chiqarish muddatlari esa 16 (ijara huquqida) va 22 ish kunigacha (mulk huquqida) qisqartirildi.

Jismoniy va yuridik shaxslarda doimiy foydalanishda (egalikda) bo'lgan xususiy lashtirilayotgan yer uchastkasini sotib olish qiymati hamma hududlar bo'yicha yer solig'ining bazaviy soliq stavkasi

20 baravari miqdorida belgilangan bo'lsa, yangi tartibga muvofiq Toshkent, Nukus shaharlari va viloyat markazlarida yer solig'ining bazaviy soliq stavkasi 10 baravarga, boshqa hududlarda 5 baravarga kamaytirildi. Bir so'z bilan aytganda, sohaga oid qonunchilikdagi yangiliklar fuqaro va tadbirkorlarga qo'shimcha qulaylik yaratib bermoqda.

O'z o'rnida biz – mazkur yo'nalishda aholiga xizmat ko'rsatuvchi Kadastr idoralari xodimlari ham faoliyatimizni "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan ezu g'oya asosida tashkil qilganmiz.

Davlat kadastrlari palatasi Toshkent shahar boshqarmasi va uning hududiy filiallariga 2022-yilda ko'chmas mulk obyektiga kadastr pasportini tayyorlash bo'yicha jami 77 ming 613 ta ariza kelib tushdi. Kadastr hujjatini tayyorlash bo'yicha eng ko'p buyurtma Sergeli, eng kam buyurtma esa Yakkasaro tumani aholisidan qabul qilindi. Boshqarmamiz tomonidan 29 ming 944 ta yakka tartibdagi turar joy, 14 ming 343 ta noturar joy ko'chmas mulk obyektlari, 80 ming 559 ta ko'p qavatli turar joylar hamda 292 ta yer uchastkasiga bo'lgan huquqlar davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

Joriy yilda ham Davlat kadastrlari palatasi Toshkent shahar boshqarmasi va uning hududiy filiallari xodimlari yanada shijoat bilan faoliyat yuritishni maqsad qilgan. Xalqimizga yaqin bo'lib, ularning sohaga oid murojaatlarini hal qilish, mushkullarini oson qilish yo'lida bor kuch-imkoniyatimizni ishga solamiz.

Jasur KARIMOV,

Davlat kadastrlari palatasi Toshkent shahar boshqarmasi boshlig'i

Yoshlarimizning huquqiy ongi va tafakkurini yuksaltirish, o'z sohasini mukammal biladigan, adolatli yuristlarni yetishtirish ham dolzarb vazifalarimizdan biri hisoblanadi. Bunday kadrlarni tayyorlashda yuridik sohaga yo'naltirilgan professional ta'lim muassasalarining, ayniqsa, Adliya vazirligi yuridik texnikumlarining o'rni beqiyosdir.

Ta'kidlash joizki, yuridik texnikumlarda o'qish jarayonlari o'qitishning ilg'or innovatsion usullarini qo'llagan holda o'quvchilarda vatanparvarlik, milliy o'zlikni anglash, xalqning milliy, madaniy, tarixiy an'analarga hurmat, Vatan bilan g'ururlanish va iltifor tuyg'usini shakllantirish bilan birgalikda olib borilmoqda. Shuningdek, ta'lim jarayonlarini sifatli tashkil etish, o'quv-metodik bazani yanada takomillashtirish hamda o'quv jarayoniga yuqori ish tajribali professor-o'qituvchilar, pedagog va mutaxassislarni jalb qilish borasida Toshkent davlat yuridik universiteti bilan samarali hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Jumladan, Prezidentimizning 2020-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 10-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida Toshkent davlat yuridik universitetining professor-o'qituvchilari tomonidan yuridik texnikumlar o'quvchilari uchun 2022-yilning noyabr-dekabr oylarida II ta fan (modul) asosida 150 dan ortiq masofaviy o'quv mashg'ulotlari tashkil etildi. Ushbu

SO'NGGI yillarda yoshlarning intellektual bilim darajasi yuksalishi, ta'lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchi va talaba yoshlarga xalqaro darajada bilimlar berish bo'yicha yuksak maqsadlar qo'yilgan. Bu maqsadlarga erishish esa huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish, qonunchilik asoslarini rivojlantirish hamda bu sohada-gi islohotlarni yanada chuqurlashtirishni taqozo etadi.

TA'LIMDAGI HAMKORLIK SAMARADORLIK KALITI

o'quv mashg'ulotlar kredit-modul tizimini qo'llagan holda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o'qitishning ilg'or innovatsion uslublardan foydalangan holda olib borildi.

O'quv mashg'ulotlari davomida professor-o'qituvchilar tomonidan davlat ta'lim standartlari talablariga ko'ra o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan malaka va ko'nikmalarni o'quvchilar ongiga singdirish bilan bir qatorda ularni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullaridan foydalangan holda, nutq madaniyati, kasb etikasini shakllantirishga ham alohida e'tibor qaratildi. Yuridik texnikumlari-



da olib borilgan masofaviy darslar jarayonida professor-o'qituvchilar bergan muammoli topshiriqlarni bajarish asnosida o'quvchilarda mustaqil izlanish ko'nikmasi yanada takomillashdi.

Masofaviy o'quv mashg'ulotlari yakunida o'quvchilar orasida o'tkazilgan so'rovnomalar natijalariga ko'ra, universitet professor-o'qituvchilarining olib borgan darslari ijobiy qabul qilinib, yuqori baholangan hamda o'quv yilining ikkinchi yarim yilligida ham shunday qiziqarli va sifatli darslar tashkillashtirishni so'rab, takliflar kiritilgan.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkin, o'quv jarayonini sifatli tashkil etishda, o'quvchilar ongiga kerakli bilim va malakalarni singdirishda, bo'lajak huquqshunoslarda kasb mahoratini shakllantirishda ta'lim sohasidagi o'zaro hamkorlik yo'lida tajriba almashinish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xadicha SAYDULLAYEVA,

Toshkent davlat yuridik universiteti uzluksiz ta'lim boshqarmasi uslubchisi

YO'L-TRANSPORT HODISASI YUZ BERGAN JOYDAN QOCHIB KETGANDA...

– **KECHA** ishxonamdagi hamkasbim shinasida tushlikdan qaytayotganimizda yo'l-transport hodisasi sodir bo'ldi. Biz bilan bir yo'lida yonma-yon harakatlanayotgan "Nexia" avtomashina haydovchisi belgilangan qoidalarini buzgan holda, hamkasbimning avtomashinasiga ancha miqdorda zarar yetkazib, harakatda davom etib, hodisa yuz bergan joydan qochib ketdi. Haydovchi yo'l-transport hodisasi yuz bergan joydan ketib qolganligi uchun qonunda javobgarlik belgilanganmi?

(ismi va manzili sir tutildi)

– Albatta, yo'l-transport hodisasi yuz bergan joydan ketib qolganligi uchun qonunda javobgarlik belgilangan. Amaldagi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 137-moddasi talabiga ko'ra, yo'l-transport hodisasi qatnashchilarining belgilangan qoidalarini buzgan holda hodisa yuz bergan joydan ketib qolishi – bazaviy hisoblash miqdorining 15 baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Shuningdek, yo'l-transport hodisasi qatnashchilarining belgilangan qoidalarini buzgan holda hodisa yuz bergan joydan ketib qolishi, agar ushbu yo'l-transport hodisasi jabrlanuvchiga yengil tan jarohati yoki ancha miqdorda moddiy zarar yetkazilishiga olib kelgan bo'lsa, – bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravari miqdorida jarima solishga yoki transport vositalarini boshqarish huquqidan bir yil muddatga mahrum etishga yoxud o'n besh sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

Savolga Oliy sud bosh konsultanti **Akrom ARIPOV** javob berdi

Essiz, og'u tomngan yoshlik!



Sanjar Nosirov (barcha ism-shariflar o'zgartirilgan) – 2003-yilda Navoiy shahrida tug'ilgan, ma'lumoti tugallanmagan oliy, Moskva davlat yuridik universiteti talabasi. Abdulla Toshev – 2003-yilda Navoiy shahrida tug'ilgan, ma'lumoti o'rta-maxsus, muqaddam jinoyat ishlari bo'yicha Navoiy shahar sudining 2021-yil 24-sentabrdagi hukmiga ko'ra, aybli deb topilib, bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravari miqdorida jarma jazosi qo'llanilgan.

Jamshid Sultonov – 1999-yilda Oltinko' tumanida tug'ilgan, ma'lumoti tugallanmagan oliy, Andijon davlat tibbiyot institutining 5-bosqich talabasi. Alisher Ochilov – 2004-yilda Buloqboshi tumanida tug'ilgan, ma'lumoti tugallanmagan o'rta, Buloqboshi tumanidagi 1-sonli maktabning 11-sinf o'quvchisi. Aziz Boltayev – 2003-yilda Buloqboshi tumanida tug'ilgan, ma'lumoti o'rta, yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullangan.

Hali hayotning dovonlariga duch kelmagan, achchiq-chuchugini tatib ko'rmagan, qiyinchiliklarini boshidan o'tkazmagan g'o'r yoshdagi bu yigitlarning barchasi o'zimizning qorako'zlar, o'zimizning fuqarolar, o'zimizning qon-qarindoshlar.

Jinoyat ishlari bo'yicha Navoiy shahar sudida o'z orzularini uvol qilgan, guldek umrini temir panjara ortida o'tkazishga mahkum bo'lgan ana shu "og'u sotuvchi"larining ishi ko'rib chiqildi.

Ichkilikka va giyohvandlikka ruju qo'yishning oqibati hech qachon yaxshilik bilan tugamasligini yillarining achchiq saboqlari allaqachon isbotlab bo'lgan. Bu illat jamiyatning eng og'riqli va eng xavfli fojialaridan sanalishini, o'z domiga tortgan odamni xarob qilishi mumkinligini barchamiz juda yaxshi bilamiz.

Eng achinarlisi, ular orasida voyaga yetmagan yigitning borligi, maktab

o'quvchisi giyohvandlik savdosi bilan shug'ullanayotganidir. Undan ham afslanarlisi, Moskva davlat yuridik universitetida tahsil olayotgan va Andijon davlat tibbiyot institutining 5-bosqich talabalari borligi. Bo'lajak huquqshunos, qonun himoyachisining o'zi qonunbuzar, jinoyatchi bo'lsa, dodingni kimga aytasan. Yoki shifokorlik qasamyodini qabul qilishiga bir qadam qolgan bo'lajak salomatlik posbonining ham niyatlari toza emasligi qanchalar achchiq bo'lmasin, haqiqat. Ular orasida muqaddam sudlangan, jazolangan, ammo bundan tegishli xulosa chiqarmasdan qayta jinoyat sodir etganlarning borligi ham kishini ranjitadi.

Bu yigitlar jinoyat ustida qo'lga tushib, ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olinganida ularning ota-onalari, yaqinlari qanday ahvolga tushganini tasavvur qilish qiyin emas. Axir hech bir ota-ona farzandi ortidan la'nat eshitishni, mahalla-ko'y oldida yuzi shuvut bo'lishini istamaydi. Ammo hozir istakning o'zi kamil qiladi. O'g'li yoki qizi tunlari sayoq yurishini oddiy holga yo'yadigan, ularga barcha shart-sharoitlarni muhayyo qilib, hisobini so'ramaydigan, xato qilsa ham ularni osongina kechiradigan ota-onalarning ko'ngli bo'shligi ana shunday fojialarga sabab bo'layotgani va qimmatga tushayotganini ham tan olishimiz kerak, albatta.

Yaxshiyamki, huquq tartibot idoralari xodimlari hushyor. Navoiy viloyat ichki ishlar boshqarmasi hamda Navoiy shahar ichki ishlar boshqarmasi jinoyat-qidiruv bo'limi xodimlari tomonidan Navoiy hamda Andijon shaharlari hududida o'tkazilgan "Nazoratli xarid tadbiri" tezkor-qidiruv tadbiri davomida, giyohvandlik vositasini qonunga xilof ravishda o'tkazish maqsadini ko'zlab, "gashish" giyohvandlik moddasini sotayotganda ushlangan "qahramon"larimiz qonun oldida javob berdi. Sudda ularning qay biri giyohvandlik moddasini o'zi iste'mol qilishini, kimdir voyaga yetmagan yigitning yoshligini bilmasdan uning hayotini zaharlaganini tan olib, qilmishining oqibatini tushunib yetganini, aybiga iqror va pushaymonligini, yoshligini inobatga olishlarini so'ragan.

Nachora, qilmish-qidirmish degan gap bekorga aytilmagan. Kimgadir 2 yilu 6 oy, kimgadir 2 yilu 1 oy, kimgadir 2 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi. Voyaga yetmagan A. Ochilov esa 1 yilu 6 oy muddatga ozodlikni cheklash jazosiga tortildi. Pushaymondan esa endi foyda yo'q. Yellarga sovu-rilgan qimmatli yoshlikning temir panjara ortidagi xazonli yillari bu yoshlarga, qolaversa, bu voqeadan xabardor bo'lgan zamondoshlarimizga saboq bo'lsa ajabmas!

Dilobar PARDAYEVA,

jinoiyat ishlari bo'yicha Navoiy shahar

sudi sudyasi,

Marusa HOSILOVA,

"Inson va qonun" muxbiri

BOZORGA borgan kishi borki, o'z tashvishi bilan band. Sotuvchi ham, xaridor ham. Kimdir oldi–berdida savdolashishni ma'qul ko'rsa, yana kimdir... bozorga boshqa "tashvish" bilan ham kelarkan. Xalq orasida "bozorda hamyonimni oldirdim...", "hamyonimni yo'lda tushirib qo'yibman", "hamyonimni mashinada unutib qoldiribman shekilli..." deganga o'xshash gaplarni eshitib qolamiz. Nabirasiga oyoq kiyim olish xayoli bilan bozorga kelgan Soliha opa ham (ism-shariflar o'zgartirilgan) poyabzallar sotiladigan rastaga o'tib, sotuvchi bilan savdolashayotganida yonginasida paydo bo'lgan kissavurni sezmay qoldi.

O'G'IRLANGAN HAMYON



Keyin u kartoshka sotilayotgan savdo rastalarini aylana turib, notanish bir ayolni tanlaydi. Qiziga esa, shu atrofda aylanib turishini tayinlaydi. Xaridor ayol hamyonini qo'lidagi paketga joylaydi-da, savdo rastalari oralab ketadi. Uning poyabzallar sotiladigan rastaga o'tganini ko'rgan S.M. qulay fursat kelishini kutadi. Xaridor ayol bamaylixtir savdolashayotganida S.M. paketni kesib, xaridor-ga bildirmasdan uning hamyonini o'g'irlaydi.

Ishi "silliq" ko'chgan o'g'ri ayol shu zahoti urug'lar sotiladigan do'konga kiradi-da, osongina qo'lga kiritilgan "o'lja"ni nima qilishni o'ylaydi. Yashin tezligida xayoliga kelgan fikrni amalga oshiradi. Oldin hamyonni ochib ko'radi, keyin undagi pullarni olib, qolgan narsalarni – pasport bilan telefonni, bank plastik kartochkasini shu yerdagi qop ichiga yashirib, do'kondan chiqib ketadi.

Bozorni aylanib yurgan qizining yoniga borib, hech narsa bo'lmaganday bozordan ko'chaga chiqib ketayotganida tuman IIB xodimlari tomonidan qo'lga olinadi. S.M. birinchi so'rovdayoq o'g'irlik qilganini tan oladi.

Ayol aybidan pushaymonligi, jablanuvchiga yetkazilgan zararini to'liq qoplab berganligi, qararmog'ida 8 nafar voyaga yetmagan farzandi borligi, turmush o'trog'i 4 yil avval vafot etganligi, yolg'iz ona bo'lib farzandlarini bir o'zi boqib kelayotganligini aytib, oilaviy ahvoli og'irligini inobatga olib suddan yengillik berishni so'radi.

Sudlanuvchining aybi uning sud-da iqrorlik bildirib bergan ko'rsatmasidan tashqari voqea joyini ko'zdan kechirish bayonnomasi, unga ilova qilingan barcha hujjatlar, ishda to'plangan boshqa dalillar bilan to'liq isbotlandi. Qo'lli egri ayolga qonuniy tartibda jazo tayinlandi.

Gulbahor ORTIQXO'JAYEVA,

"Inson va qonun" muxbiri

E'LONLAR

O'zbekiston Musulmonlari idorasi o'rta maxsus islom bilim yurti tomonidan 2011-yilda Qobilova Mastura Hakimjon qiziga berilgan 0002282-raqamli diplom yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Advokatlar palatasi Gashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2022-yil 24-dekabrdagi 12-son qaroriga asosan, viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 13-yanvardagi buyrug'i bilan Qarshi shahridagi "R-Xuja himoyasi" advokatlik byurosi advokati Raxmonov Sanjar Ergashevichga 2019-yil 22-avgust kuni adliya boshqarmasi tomonidan berilgan KS 000202-reyestr raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi hamda advokatlik maqomi 2023-yilning 13-yanvar kuni 3 oy muddatga to'xtatildi.

8 FAOLIYAT

DAVLAT XIZMATLARINI
KO'RSATISHDA
FUQARO E'TIBOR MARKAZIDA

PREZIDENTIMIZNING 2022-yil 20-apreldagi "Davlat xizmatlari ko'rsatishni soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan "Davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishning 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Milliy strategiyasi" tasdiqlandi. Mazkur hujjat "Davlat xizmatlarini ko'rsatishda fuqaro e'tibor markazida" tamoyili asosida davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishning maqsadlari, vazifalari va ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi.

Davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish aholining davlat organlari bilan munosabatga kirishishda inson omilini minimallashtirish, byurokratik jarayonlarni qisqartirish, xizmatdan foydalanuvchilarning vaqti va xarajatlarini kamaytirish hamda ma'muriy tartib-taomillarning shaffofligi va ochiqligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Strategiyaning maqsadiga erishish uchun esa, avvalo, davlat xizmatidan foydalanish uchun murojaat qilishning qulay usullarini yo'lga qo'yish kerak.



Qolaversa, markazlar va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YaDXP)ga yangi xizmatlarni joriy etishdan oldin ularning tartib-taomillarini soddalashtirish zarur. Ma'lum bir hududda eksperiment tarqasida ko'rsatishni yo'lga qo'yish orqali tartibga solish ta'sirini baholash, jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlarini sudgacha ishonchli himoya qilishning samarali mexanizmlarini belgilash, YaDXPning mobil ilovasini takomillashtirish va ommabop xizmatlardan ushbu ilova orqali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, elektron hukumat, davlat xizmatlarini rivojlantirish sohasidagi xalqaro reytinglarda O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilash, markazlar faoliyati samaradorligini oshirish, ayrim davlat xizmatlarini xususiy sektorga bosqichma-bosqich o'tkazish lozim.

"Davlat xizmatlarini ko'rsatishda fuqaro e'tibor markazida" tamoyili davlat xizmatlarini ko'rsatishning tashkiliy-huquqiy mexanizmi undan foydalanuvchi uchun maksimal qulaylik yaratgan holda yo'lga qo'yilishini nazarda tutadi. Bu, o'z navbatida, davlat xizmatlarini joriy etish va takomillashtirishda foydalanuvchilarning faol ishtirokini ham taqozo etadi. Bunda quyidagi jarayonlar muhim o'rin tutadi.

Kam xarajat bilan yuqori ijtimoiy qiymat yaratish. Davlat xizmatlarini ko'rsatishda foyda-

lanuvchilarning ehtiyojlari yuqori darajada qondirilishini ta'minlash uchun davlat ilg'or boshqaruv texnologiyalaridan, davlat-xususiy sheriklik va bozor iqtisodiyoti tamoyillaridan samarali foydalanishi zarur.


Davlat xizmatlarini innovatsion rivojlantirish. Davlat xizmatlari tizimida innovatsiyalarni joriy etish, sifatini monitoring va nazorat qilish, o'z vaqtida tekror tuzatishlar kiritilish mexanizmi qo'llanilishi kerak.

Huquqiy aniqlik va xavfsizlik. Davlat xizmatlarini ko'rsatish qonun asosida, ma'muriy tartib-taomillarga muvofiq hamda tegishli qarorlar va xatti-harakatlarning qonuniyligi ustidan nazoratning ishonchli kafolatlari bilan amalga oshirilishi lozim.

Respublikamizda davlat xizmatlarini ko'rsatishni rivojlantirish, barcha davlat xizmatlari elektronlashtirilishi davlat xizmatlari ko'rsatishga vakolatli bo'lgan davlat organlarida byurokratizm, korrupsiya, sansalorlik va boshqa ma'muriy to'siqlar bartaraf etilishiga, eskirgan va zamon talablariga mos kelmaydigan tartib-taomillar tubdan qisqartirilishiga olib keladi. Bu esa xalqimizning va tadbirkorlik subyektlarining davlat xizmatlaridan qoniqlik darajasini yanada oshiradi.

Ilhom MANNONOV,
Boysun tuman adliya bo'limi davlat xizmatlari markazi direktori

Anton CHEXOV



U ko'zidan durbinni oldi, engashdi va... apishu!!! Ko'rib turibsigizki, chuchkurdi, chuchkurishning aybi yo'q. Mujiklar ham chuchkuradi, politsmeysterlar, ba'zan hatto tayniy sovetniklar ham chuchkuradi. Hamma chuchkuradi. Chervyakov hech qancha hijolat bo'lmadi, ro'molchasi bilan og'zi burnini artdi va odobli odam bo'lgani uchun chuchkurganim bironvga malol kelmadimkan deb atrofiga qaradi. Mana shunda hijolat bo'lib qoldi. Qarasa oldida o'tirgan chol perchatkasi bilan tepakal boshini, bo'ynini artib, do'ng'illayotipti. Chervyakov cholni tanidi: bu chol statskiy general Brizjalov bo'lib, temir yo'l mahkamasida xizmat qilardi.

"Men unga tupuk sachratdim, – deb o'yladi Chervyakov. Mening boshlig'im emas, begona, shunday bo'lsa ham yaxshi emas, afv so'rash kerak".

Chervyakov yo'taldi, biroz oldinga engashib generalning qulog'iga pichirladi:

– Kechiring, janobi oliylari, beodobchilik bo'ldi... Men bilmasdan...

– Mayli, mayli...

– Xudo haqi, kechiring. Axir men... Qandoq qilay...

– Xudo haqi, kechiring. Axir men... o'zimga qolsa shundoq bo'lsin depmanni!

– Obbo, tek o'tirsangizchi, azbaroyi xudo! Qo'ying, eshitaylik!

Chervyakov xijolat bo'ldi, iljaydi va sahnaga qaradi. U sahnaga qararkan, endi rohat qilolmay qoldi. Uning yuragi g'ash bo'la boshladi. Antrakt vaqtida Brizjalovga yaqin keldi, uning oldida biroz yurdi va o'zini dadil tutib g'o'ldiradi:

– Men sizga bilmasdan tupuk sachratdim, janobi oliylari... Kechiring... Axir men... Nainki...

– E, qo'ysangiz-chi... Men allaqachon esimdan chiqarib yubordim-u, siz hali ham o'sha gapni gapirib yuribsiz! – dedi general va tajang bo'lib pastki labini qimirlatdi.

"Ko'zlari qonga to'lib turibdi-yu, tag'in esidan chiqqan emish, – deb o'yladi Chervyakov, generalga shubha bilan qarab. – Gapirgisi ham kelmaydi. Unga tushuntirishim kerak, o'zimga qolsa... Bu tabiat qonuni, axir. Tushuntirmasam menga tupurdi deb o'ylaydi. Hozir o'ylamas, keyin o'ylaydi!"

Chervyakov qilgan adabsizligini uyiga kelib, xotiniga gapirib berdi. Chervyakovning fahmicha xotini bu voqeaga yengiltaklik bilan qaradi: u faqat qo'rqib ketdi-yu, Brizjalov erining nachalnigi emasligini bilganidan keyin, ko'ngli joyiga tusha qoldi.

– Shunday bo'lsa ham borib uzr so'ra, – dedi u. – Bo'lmasa xalq orasida o'zini tutolmas ekan, deb o'ylaydi!

– Mana shunisi bor-da! Men uzr so'radim, lekin hayronman... Bir og'iz ham durust gap aytmaydi.

So'lim oqshomlarning birida xuddi shunday so'lim ekzekutor Ivan Dmitrich Chervyakov kreslolarining ikkinchi qatorida o'tirib, durbini orqali "Kornevilskiye kolokola" degan spektaklini tomosha qilardi. U sahnaga qarab, o'zini eng rohatda o'tirgan his qilardi. Lekin birdaniga... Hikoyalarda "lekin birdaniga" so'zi tez-tez uchrab turadi. Avtorlar shunday deyishga haqli, chunki hayotda tasodifiy hodisalar juda ko'p! Lekin, birdaniga uning yuzi burishdi, ko'zlari olaydi, nafasi to'xtadi...

Chinovnikning
o'limi

Gaplashishga fursat ham bo'lgani yo'q.

Ertasi kuni Chervyakov yangi vitmundirini kiydi, sochini oldirdi va izoh bergani Brizjalovning oldiga ketdi... Generalning qabulxonasida arzga kelgan bir muncha odam o'tirgan ekan. General arz so'ramoqda edi. U bir necha kishidan arz so'rab bo'lib, Chervyakovga qaradi.

– Kecha, janobi oliylari, agar eslarida bo'lsa, – deb so'z boshladi ekzekutor, – men "Arkadiya"da chuchkurdim... Bilmasdan janobi oliylariga tupuk sachratdim... Kechira...

– Shu ham gap bo'ldi-yu... Tavba! Sizning nima arzingiz bor? – dedi general navbatdagi kishiga.

"Gapirgisi ham kelmayapti, – deb o'yladi Chervyakov rangi o'chib, – xafa bo'libdi... yo'q, ko'nglidan chiqarmasam bo'lmaydi... Tushuntiraman..."

General odamlardan arz so'rab bo'lgandan keyin ichkari uyga kirib ketayotgan edi. Chervyakov uning ketidan ergashib g'o'ldiradi:

– Janobi oliylari! Agar janoblarini bezovta qilishga haddim sig'sa, faqat pushaymonligimni izhor qilish vajidan deb bilasiz!.. o'zlariga ma'lum, jo'ttaga qilganim yo'q!

General aftini burishtirib, qo'l siltadi va ichkariga kirib ketar ekan:

– Siz meni kalaka qilayotibsiz, muhtaram afandi, – dedi.

"Kalaka nimasi! – dedi ichida Chervyakov. – Mening hech bunaqa niyatim yo'q! General bo'la turib, shuni bilmaydi-ya! Bunaqa bo'lsa men bu takaburdan uzr so'rab o'tirmayman! Ming la'nat! Xat yoza qolaman, endi kelib yurmayman. Xudo ursin, kelmayman!"

Chervyakov uyga ketayotib shuni ko'nglidan kechirdi. U generalga xat yozmadi. O'ylab-o'ylab nima deb yozishni bilmadi. Ertasiga yana generalning oldiga borishga to'g'ri keldi.

– Men kecha kelib sizni bezovta qilgan edim, janobi oliylari, – dedi u o'tirgan boshini ko'tarib uyga qaraganda. – Siz aytmoqchi, men kalaka qilganim yo'q. Sizga uzr aytgani kelgan edim. Kalaka qilish xayolimga ham kelgan emas. Nahot, kalaka qilgani haddim sig'sa? Agar biz kalaka qiladigan bo'lsak u vaqtda, demak, ulug'larda hurmat qoladimi.

– Yo'q!! – deb baqirdi birdaniga general ko'karib, titrab-qaqshab.

– A? – dedi angrayib qolgan Chervyakov sekin.

– Yo'q!! – deb qichqirdi general yana, yer tepinib. Chervyakovning qornida nimadir uzilib ketdi. U hech nimaga qaramay, hech nimani eshitmay, eshikkacha tisariilib bordi, ko'chaga chiqib, jo'nab qoldi... Uyiga qanday borganini ham bilmay, vitmundirini ham yechmay, divanga yotdi-yu... o'lib qoldi.

Abdulla QAHHOR tarjimai

INSON
va qonun

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0001-raqam bilan
ro'yxatga olingan

ISSN 2010-7897



9 770203 78978008

TAHRIR HAY'ATI

Bosh
muharrir

Asliddin
ALIMARDON

Muzrat Ikramov
Furqat Tojiyev
Shoxidaxon Yuldasheva
Sevara O'rino'boyeva
Yor'bek Iskandarov
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Yor'bek Iskandarov

Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiyboyev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida "Business print" xususiy korxonasi bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, So'g'ali ota, 5a-uy

Tiraj: – 3688
Buyurtma – G-06

To'plash vaqti – 19:00
To'plash vaqti – 19:00

MANZILIMIZ:

100115, Toshkent sh.
Amir Temur shoxko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5